

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO`JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
«Iqtisodiyot» kafedrası**

**QISHLOQ XO`JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI
*fanidan***

**«Jahon, respublika qishloq xo`jaligi, uning joylashishi, ixtisoslashishi,
uni jahon moliyaviy-ishlab chiqarish inqirozi sharoitida rivojlanishi»
mavzusidagi**

TOSHKENT – 2019

Mavzu:

Jahon, respublika qishloq xo'jaligi, uning joylashishi, ixtisoslashishi, uni jahon moliyaviy-ishlab chiqarish inqirozi sharoitida rivojlanishi

• Reja:

- 1. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish va tarmoqlar tushunchasi.**
- 2. Ixtisoslashtirishga ta'sir etuvchi omillar va ixtisoslashtirish shakllari**
- 3. Qishloq xo'jalik korxonalarida tarmoq tarkibi va tarmoqlarni bog'lab borish talablari**

1. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish va tarmoqlar tushunchasi.

- **Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish bu xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatlarini, talab va taklifdan kelib chiqqan holda, mavjud resurslardan samarali foydalanib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarni etishtirishga yo'naltirishdan iboratdir. U korxonaning u yoki bu turdagi ijtimoiy tovar mahsulotni (paxtani, donni, qand lavlagisini, go'shtni, sutni, tuxumni, junni va boshqalarni) ishlab chiqarishdagi ishtirokini belgilab beradi.**
- **Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishni chuqurlashtirish - esa xo'jalik yurituvchi sub'ektda mavjud bo'lgan resurslardan samarali foydalanib, undan ishlab chiqarish faoliyatini ko'proq tovar mahsulotlari ishlab chiqarishga yo'naltirishdir.**

- **Har bir qishloq xo'jalik korxonasida bir necha tarmoq mavjud, ular orasida korxonaning maqsadi va vazifasini, asosiy yo'nalishini ifoda etuvchi tarmoq bo'ladi.**
- **U yoki bu qishloq xo'jalik mahsulotini etishtirishga nafaqat qishloq xo'jaligi korxonasi, balki butun bir hudud, viloyat, iqtisodiy hudud va zonalar ixtisoslashishi mumkin. Ko'rinib turibdiki, ixtisoslashish ma'lum mazmunda joylashish bilan bog'liq bo'lib, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mamlakat hududida joylashishini, ya'ni ijtimoiy mehnat taqsimoti shaklini ifoda qiladi.**
- **Ixtisoslashtirish va joylashtirish bir jarayonning ikki tomonini aks ettirib, ixtisoslashtirish bu jarayonning sifat tomonini, ya'ni birinchi navbatda, qanday mahsulot etishtirish kerak degan savolga, joylashtirish esa uning miqdor tomonini, ya'ni u yoki bu mahsulotdan qancha etishtirish kerak, degan savolga javob beradi.**

- **Xalq xo'jaligining boshqa sohalari kabi qishloq xo'jaligi korxonalarini maqsadga muvofiq ixtisoslashtirish uchun ularning ixtisoslashtirish darajasini aniqlash va shu darajani ifoda etuvchi ko'rsatkichlarni belgilash talab etiladi.**
- **Korxonalarining ixtisoslashtirish darajasini quyidagi ko'rsatkichlar ifoda etadi:**
- **korxonada tovar mahsulotining tarkibi, ya'ni jami tovar mahsulotidagi u yoki bu turdagi mahsulotning salmog'i;**
- **korxonada yalpi mahsulotini tarkibi;**
- **yer maydoni, ekin maydoni tarkibi, chorva va poda tarkibi;**
- **ishchi kuchlari va mehnat sarfining tarkibi va taqsimlanishi.**
- **Korxonaning ichki xo'jalik ixtisoslashishini aniqlashda yalpi mahsulot tarkibidan asosiy ko'rsatkich sifatida foydalaniladi.**

• **2. Ixtisoslashtirishga ta'sir etuvchi omillar va ixtisoslashtirish shakllari**

- **Qishloq xo'jaligi korxonasini ixtisoslashtirish ikki katta turga bo'linadi:**
 - - xo'jalik ixtisoslashuvi;
 - - tarmoq ixtisoslashuvi.
- **Xo'jalik ixtisoslashuvi o'z navbatida xo'jaliklararo ixtisoslashtirish va ichki xo'jalik ixtisoslashtirishga bo'linadi.**
- **Xo'jaliklararo ixtisoslashtirishda bir necha mustaqil korxonalar o'z mablag'larini, etarli samara bermayotgan sohani birgalikda birlashtirish orqali ishni maqsadga muvofiq tashkil etishi tushuniladi. Bunday ixtisoslashish xo'jaliklararo korxonasi sifatida namoyon bo'ladi. Bunday korxonasi sifatida ham tashkil etilishi mumkin.**
- **Ichki xo'jalik ixtisoslashtirishi mohiyati – korxonasi ishlab chiqarish bo'linmalari yoki hududlarini biron turdagi mahsulot etishtirishga yo'naltirish, biror turdagi mahsulotni maqsadga muvofiq hajmda joylashtirishdir. Bunday ixtisoslashtirish korxonasi ishlab chiqarish resurslaridan to'la va samarali foydalanish imkonini beradi, resurslarning korxonasi hududida samarasiz harakatini cheklaydi.**

- Tarmoq ixtisoslashuvi o'z navbatida tarmoq bo'yicha ixtisoslashtirish va tarmoq ichida ixtisoslashtirishga bo'linadi.
- Tarmoq bo'yicha ixtisoslashtirishda korxonada bir yoki bir nechta (cheklangan) tarmoq maqsadga muvofiq hajmda joylashtiriladi. Masalan, korxonada o'simlikchilik yoki bog'dorchilik yoxud chorvachilikka ixtisoslashadi, yo bo'lmasa, paxtachilikka va sabzavotchilikka yoki sutchilikka va ko'chat etishtirishga ixtisoslashishi mumkin. Tarmoq ichida ixtisoslashuvning chuqurlashib borishi va uning chegarasi mahsulot etishtirish bilan bog'liq bo'lgan jarayonni mustaqil ajralib, natijada bu mahsulot sifatida namoyon bo'lishidir.

3. Qishloq xo'jalik korxonalarida tarmoq tarkibi va tarmoqlarni bog'lab borish talablari

- Ixtisoslashish biz yuqorida ko'rsatgan ijobiy tomonlar hamda yutuqlar bilan birga har qanday jarayon singari ma'lum kamchiliklarga, salbiy oqibatlariga ham ega. Ixtisoslashgan mehnatning bir xilligi, doimo bir maromda takrorlanib turishi, zerikarliligi hammaga ma'lum.
- Qishloq xo'jaligi korxonalarida tashkil etilgan tarmoqlar ularning iqtisodiy-tashkiliy mavqeyi va ahamiyatiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:
 - - asosiy tarmoq;
 - - yordamchi tarmoq;
 - - xizmat ko'rsatuvchi tarmoq;
 - - qo'shimcha tarmoq.

- **Asosiy tarmoq** deb, korxonaning jami tovar mahsulotida yoki **yalpi mahsulotida eng katta salmoqqa ega bo'lgan, uning maqsad va vazifalarini ifodolovchi hamda ixtisoslashishi – yo'nalishini belgilovchi tarmoqqa** aytiladi.
- **Asosiy tarmoq bir yoki bir necha xil mahsulotlar etishtirishi, bir necha kichik tarmoqlarni o'z ichiga olishi mumkin. Asosiy tarmoq o'z mahsuloti korxonaning tovar mahsulotida 50 foizdan kam bo'lmasligi bilan xarakterlanadi.**
- **Yordamchi tarmoq** – bu, korxonaning tovar mahsuloti bo'yicha **asosiy tarmoqdan keyingi o'rinda turadigan, asosiy tarmoq bilan texnologik hamda tashkiliy jihatdan bog'langan, asosiy tarmoqning muttasil rivojlanib borishi uchun bevosita yordam ko'rsatadigan tarmoqdir. Masalan, paxtachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan yirik korxonalarda sut qoramolchiligi yordamchi tarmoq sifatida tashkil qilinadi.**

- **Xizmat ko'rsatuvchi tarmoq** - bu, korxonada asosiy va yordamchi tarmoqlarga xizmat ko'rsatadigan, tovarlik xususiyatiga ega bo'lgan yoki bo'lmagan tarmoqlardir.
- Yirik kooperativ (shirkat) korxonalarida xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni tashkil etish iqtisodiy samara berishi mumkin.
Adabiyotlarda ko'pincha xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni infratuzilma tarmoqlari deb ham yoziladi.
- **Qo'shimcha tarmoq**. Yirik qishloq xo'jaligi korxonalarida shu korxonani tabiiy, mehnat resurslaridan foydalanishni yanada to'laroq ta'minlash maqsadida qo'shimcha tarmoqlar tashkil etilishi mumkin.

– Qishloq xo'jalik korxonalarini ixtisoslashtirish va tarmoqlarni o'zaro bog'lab borishni taqazo etadigan talablar qo'yidagilardir:

- **1. Korxonaning er fondidan to'la va samarali foydalanish maqsadida.** Har bir korxonaning er hududi yaxlit bir massiv sifatida tashkil etilib, turli sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli erlar turli sifat va ko'rinishda bo'lishi mumkin. Masalan, korxonada erining asosiy qismini ekinzor tashkil etganda ham ma'lum hajmi, qo'riq, yaylov, ko'l, notekis erlar bo'lishi mumkin. **Almashlab ekish erdan samarali foydalanishning asosiy omillaridan biridir. Korxonada almashlab ekishning mavjudligi bir necha asosiy va yordamchi tarmoq shakllanganidan dalolat beradi.**
- **2. Asosiy tarmoqni muttasil rivojlantirib borish maqsadida.** Qishloq xo'jaligida shunday tarmoqlar va mahsulotlar borki, ularni etishtirish, albatta, boshqa tarmoqning bo'lishini taqazo etadi. Bularga cho'chqa bolalari etishtirib boruvchi reproduktiv cho'chqachilik xo'jaligida cho'chqa bolalari nobud bo'lmasligi uchun sut qoramolchiligini tashkil qilish talab etiladi. Bunday xo'jaliklarda sog'in sigirlar fermasi bo'lishi shart.

- **4. Korxonaning mehnat resurslaridan va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan to'la va samarali foydalanish maqsadida.** Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi mavsumiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun korxonaning ishchi kuchlaridan va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan foydalanish mavsumiy xarakterga ega. Shuning uchun ishlab chiqarish va mehnat jarayonlari o'zaro bir davrga to'g'ri kelmaydigan tarmoqlarni tashkil etish ham ishchi kuchlaridan, ham ishlab chiqarish vositalaridan to'la va unumli foydalanish imkonini beradi. Bunda mehnat va vositalardan foydalanishning mavsumiyligi pasayadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqarish vositalarining eskirgan qismiga to'g'ri keladigan qiymati ko'proq mahsulotlarga to'g'ri kelganligi uchun ularning mahsulot birligidagi salmog'i kamayadi, mahsulot tannarxi pasayadi.
- **5. Korxonani moliyaviy ahvolini yaxshilash uni raqobatbardoshligini ortirish maqsadida.** Qishloq xo'jaligi mavsumiy xususiyatga ega bo'lganligi uchun ko'pchilik mahsulotlar bir yilda bir marotaba etishtiriladi.

**E'TIBORLARINGIZ UCHUN
RAHMAT!**